JISMONIY TARBIYA MASHG‘ULOTLARI ORQALI TALABALARDA HAMKORIKDA ISHLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xakimov Kobul Maxamadovich
Farg‘ona davlat universiteti Jismoniy madaniyat va sport faoliyati fakulteti Jismoniy tarbiya va sport o‘yinlarini o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari orqali talabalarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari va metodik yondashuvlari yoritiladi. Jamoaviy sport o‘yinlari, juftlikda va kichik guruhlarda bajariladigan mashqlar hamda hamkorlikka asoslangan harakatli o‘yinlarning talabalar o‘rtasida samarali muloqot, o‘zaro yordam, mas’uliyat va birgalikda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Mashg‘ulotlarda umumiy maqsadni belgilash, vazifalarni taqsimlash, harakatlarni muvofiqlashtirish va guruh faoliyatini birgalikda baholashga qaratilgan metodik usullar bayon etiladi. Talabalarning individual xususiyatlari va jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda hamkorlikdagi faoliyatni bosqichma-bosqich tashkil etishga e’tibor qaratiladi. Hamkorlik ko‘nikmasining rivojlanishini baholashda faol ishtirok, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, topshiriqlarni kelishilgan holda bajarish va jamoaviy natijaga hissa qo‘shish mezonlari tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, talabalar, hamkorlikda ishlash, jamoaviy faoliyat, hamkorlikda o‘qitish, sport o‘yinlari, guruhli mashqlar, muloqot ko‘nikmalari, o‘zaro yordam, jamoaviy mas’uliyat, interfaol metodlar, baholash mezonlari.

KIRISH. Voleybol – bu jamoaviy sport turi bo‘lib, o‘yinchilar o‘rtasida o‘zaro anglashuv, ishonch va koordinatsiyalangan harakatni talab qiladi. Voleybolga tayyorgarlik mashg‘ulotlari davomida talabalarni hamkorlikda ishlashga o‘rgatish, ularning nafaqat jismoniy, balki psixologik va ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dolzarbligi. Dunyo sportida hamkorlikda ishlash, birgalikda g‘alaba qozonish bo‘yicha ko‘plab yondashuvlar amalda qo‘llanadi. Shunday bo‘lishiga qaramay, erkaklar va ayollar sportida jamoa bilan ishlashda ko‘plab muammolar, har bir ishtirokchining birinchi bo‘lish ishtiyoqi boshqalar bilan hisoblashmaslik, jamoani hurmat qilmaslik oqibatida muvaffaqiyatsizliklarga uchrash holatlari ko‘p kuzatiladi. Bunda muayyan sport turi bilan shug‘ullanuvchi xalqning milliy mentaliteti ham katta rol o‘ynaydi. Xalqaro jismoniy tarbiya o‘qitish metodikasida har bir sportchini jismoniy tayyorlash bilan birga bir paytning o‘zida ruhiy jihatdan ham tayyor holga keltirish bo‘yicha ko‘plab yondashuvlar qo‘llanadi.

Tadqiqotning maqsadi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari asosida talabalarda voleybol o‘yinlarda hamkorlikda ishlash orqali muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Tadqiqotning vazifalari:

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida voleybol o‘yinlari orqali talabalarning hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning hozirgi holatini tahlil qilish hamda sport ta’limi tizimidagi o‘rnini ilmiy asoslab berish;

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ilmiy-metodik bazani tashkil etadi. N.N.Azizxo‘jayeva, N.X.Avliyoqulov, J.G‘.Yo‘ldoshev, A.S.Usmonov interfaol ta’lim metodlari va hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarini hamda talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishni o‘rganishgan [3;4;5;6;7]. M.V.Norkin, M.X.Boboyorov, Z.A.Abdullayeva esa sport o‘yinlari orqali yoshlarning ijtimoiy faolligi, muloqot madaniyati va mas’uliyatini rivojlantirishga oid tadqiqotlar olib borgan [8-9]. Respublikamiz olimlaridan A.A.Abdullayev, Sh.X.Xankeldiyev R.D.Xalmuxamedov, R.S.Salomov, R.M.Matkarimov, M.N.Umarov, A.K.Eshtayev, F.A.Kerimov, D.X.Umarov A.A.Pulatov, A.A.Ummatov, A.A.Boltayev, S.T.Xakimovlar aynan sohaga oid o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini turli sohalarda amalda qo‘llay

oladigan sog‘lom yosh avlodni tarbiyalash muammosi jamiyat rivojlanishining pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan yoritib berilgan [10;11;12;13;14;15;16;17;18;19].

NATIJA VA MUHOKAMA. Tadqiqotimiz doirasida amalga oshirilgan kuzatuv, empirik o‘rganish va tahlillar mazkur model quyidagi o‘zaro bog‘liq funksiyalarni bosqichma-bosqich integratsiyalash orqali amalga oshirilganda samarali bo‘ladi, degan xulosaga kelish imkonini berdi (1-rasm).

O‘yinlarda o‘qituvchi o‘z talabalarini, ularning fe’l-atvori, odatlari,

Tadqiqotda amaliy-metodik komponent talabaning jamoaviy mashg‘ulotlarni tashkil eta olish, kommunikativ va ijtimoiy faollik ko‘rsatishi, o‘yin strategiyalarini qo‘llay olishi, mashg‘ulot metodikasini amaliyotga tatbiq eta olishi hamda refleksiv tahlil yurita olish ko‘nikmalari orqali baholandi (1-jadval).

1-jadval.

Amaliy-metodik komponent ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Tavsifi
1	Jamoaviy mashqlarni tashkil etish ko‘nikmasi	Talaba voleybol mashg‘ulotlarida guruhlarni shakllantirish, rollarni taqsimlash, jamoani boshqarish malakasini namoyon etishi.
2	Kommunikativ va ijtimoiy faol ishtirok	Talabalarning mashg‘ulotlar davomida faol muloqotda bo‘lishi, bir-birini qo‘llab-quvvatlashi va umumiy g‘oya atrofida birlashishi.
3	Jamoaviy strategiyalarni qo‘llay olish	O‘yinda taktik rejalar tuzish, rollarni moslashuvchan o‘zgartira olish, muvofiqlashtirilgan harakatlarni tashkil etish.
4	Bosqichli mashg‘ulot metodikasini amaliyotga tadbiq etish	Talabaning dars jarayonida metodikani ketma-ket, bosqichma-bosqich qo‘llay olishi va mashqlarni to‘g‘ri rejalashtirishi.
5	Refleksiv tahlilni amalga oshirish ko‘nikmasi	Talaba mashg‘ulotdan so‘ng jamoaviy faoliyatni tahlil qilish, kamchilik va yutuqlarni aniqlab, xulosa chiqarishi.

Mazkur diagnostik-baholovchi komponent talabalarda jamoaviy ishlash ko‘nikmalarining shakllanish darajasini aniqlash, tahlil qilish va baholashga yo‘naltirilgan pedagogik monitoring tizimini ifodalaydi. Ushbu komponent jamoaviy faoliyatning rivojlanish dinamikasini aniqlashga xizmat qiluvchi diagnostik jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish mexanizmini o‘z ichiga oladi hamda metodikaning samaradorligini ilmiy asosda isbotlash imkonini beradi. Diagnostik-baholovchi jarayon uzviy bog‘langan bir nechta ketma-ket bosqichlardan iborat bo‘lib, ular boshlang‘ich diagnostika, joriy monitoring, olingan natijalarni statistik va sifat jihatdan tahlil qilish, baholash mezonlarini ishlab chiqish va qo‘llash hamda yakuniy ilmiy xulosalar chiqarish bosqichlarini qamrab oladi.

Yakuniy — umumlashtiruvchi bosqichda diagnostik va tahliliy ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi ilmiy xulosa shaklida asoslab beriladi. Olingan natijalar umumlashtirilib, qo‘llanilgan pedagogik yondashuvning talabalarda jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi natijadorligi ilmiy jihatdan isbotlanadi. Shuningdek, metodikani takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida voleybol o‘yinlaridan foydalanish talabalarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligini ko‘rsatdi. Talabalarni hamkorlikda ishlashga o‘rgatuvchi usul va yondashuvlarni o‘rganish jarayonida mashg‘ulotlarni an’anaviy tarzda tashkil etish hamkorlik ko‘nikmalarining to‘laqonli rivojlanishini cheklashi aniqlandi. Shu sababli o‘yinli metodlar, kichik guruhlarda

ishlash, vaziyatli topshiriqlar va refleksiv mashqlarni tizimli qo‘llash orqali mavjud muammolarni bartaraf etish mumkinligi asoslandi hamda ularning amaliy yechimlari ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Тошкент: ТДПУ Низомий, 2003; Авлиёқулов Н.Х. Замонавий ўқитиш технологиялари. – Тошкент, 2001;
2. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов А.С. Педагогик технология асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2004; Бершадский М.Е. “Технология” в педагогической литературе // Школьные технологии. – 2002. – № 1; Беспалько В.П. Слагаемые Педагогика, 1989; Боголюбов В.И. Эволюция педагогических технологий // Школьные технологии. – 2004. – № 4;